

**YO'QOTILGAN BOLALIK**

**(Normurod Norqobilovning “Erkak” , Tohir Malik “Yulduzga aylangan qizaloq” , Isajon Sulton “Oftob chiqdi olamga” , “Qismat” hikoyalari misolida)**

**Nurmetova Quvonchoy**

**ToshDO'TAU Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) yo'nalishi magistranti**

**E-mail:** [nurmuhammedovna24@gmail.com](mailto:nurmuhammedovna24@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada Normurod Norqobilovning “Erkak” , Tohir Malik “Yulduzga aylangan qizaloq” , Isajon Sulton “Oftob chiqdi olamga” , “Qismat” hikoyalariga doir fikr-mulohazalar, tahlil va bayonlar, badiiy topilma va qiyoslarga oid qarashlar aytib o'tildi..*

**Kalit so'zlar.** *hikoya, obraz, Salim, Sobir chavandoz, badiiy topilmalar, tahlil, .*

Har bir inson o'z bolaligiga qaytishni istaydi...

Agar zimdan kuzatsangiz bolajonlarning quvnoq o'yinlari, shirindan shakar qiliqlaridan tortib, hatto arazlarigacha sodda va samimiy. Shuning uchun bo'lsa kerak bolalik sog'inchi bizni bir zum ham tark etmaydi. Biz umrimizning eng baxtli, betashvish, beg'ubor, o'yin-kulguga, ayni shu davrga juda yarashadigan xatti-harakatlar bilan sevinib o'tkizamizki, butun umr davomida shu yoshlikni qumsab, uning har bir ini eslab yashaymiz...

Afsuski, bugun biz yoritmoqchi bo'lgan hikoyalarimizning jajji qahramonlarida bu kabi bolalik bo'lmagan, qaysidir ma'noda turli sabablar - birining otasi, boshqasining onasi yoxud ikkilasining ham yo'qligi ular boshiga turfa xil sinovlarni, hatto kattalarda ham duch kelmaydigan qiyinchiliklarni soladi. Xuddi shu sabab tufayli ham ularning bolaligi yo'qotilgan, deyishimiz mumkin.

Dastlab so'zimizni Normurod Norqobilovning "Erkak" hikoyasi orqali boshlasak. Hikoyada yoshgina holida otasidan ayrilgan, oilada ikkita singlisi va onasiga tayanch bo'lib qolgan bolakayning dardli kechinmalari insonga juda ta'sirli qilib aks ettirilgan. Voqealar onasi tomonidan g'alvirdan o'tkazilib, tozalab qo'yilgan qopdagi donni tegirmonga olib borish masalasi ustida kechadi, ya'ni don olib borish ikki kundan beri ammasining o'g'illari o'rtasida sansolar bo'lishi, kamiga kecha oqshom non yopgan onasi bir xamirlik unni qo'shnidan olgani, shu bois bugun ertalab alohida tayinlab ketgani, onasining: "tegirmonga borishni akalaringga eslatish yodingdan chiqmasin-a, ulim" degan gapi avvalgidek, fe'liga xos dadillik bilan emas, xuddi ilojsiz qolgan odamday, ko'zlari g'iltillab-g'iltillab aytgani, ayni tobda ko'ziga misli baloday ko'rinayotgan bu la'nati qop bugun ham o'rnidan jilmasa, endi onasining ko'ngli vayron bo'lmog'i tayinligini his eta olgan bolakayning bor tashvishi shundan edi.



Umidi shu ammasining o'g'illadidan bo'lib, bolakay ularning yonida borgan va eshitgani esa "Uf-f, bu sag'irlarniyam tashvishi toza jonga tegdi-da, lekin!.." degan sovuqdan-sovuq iddaoli gap ammasining darvozasidan chiqib ulgurmagan murg'akning qulog'iga yetib jimitdek yuragini tilkalab, ko'zlarini yoshlatadi. Bir xayoli, bu gapni aytmoqdan andisha qilmagan katta o'g'li – Nortoji tanbalning og'ziga urish o'rniga sukutni afzal bilgan ammasiga achchiq qilib, yer tepinib, ovozi boricha yig'lagisi keladi. Afsuski, unga yig'lash mumkin emas, nega deganda, hafta burun olis ovuldan kelib-ketgan Suyun tog'asining jiddiy o'gitiga ko'ra, endi u bola emas, oilaning yagona bosh erkagi edi axir!!! Erkakka, ayniqsa, bosh erkakka ko'z yoshi qilish sira mumkin emas edi! Agar qiz boladay salga ko'zining yoshini oqizaversa, onasi, ayniqsa, ikki singlisi, misli jalada qolgan palaponlardek, o'zlarini ojiz va panohsiz his etisharmish!

Tog'asi aytmishki, oilaning bosh erkagi bo'la turib, onasini g'am ummoniga cho'mdirmoq yoxud alam o'tida qovurmoq juda uyat! Biroq oilaning bosh erkagi bo'lish oson emas, g'oyatda mushkul edi. Bolakay ammasining o'g'illaridan avvalroq dunyoga kelmaganidan o'kinadi.

Biroq uning bor kuchi xayol surmoqqa yetdi: qani endi, otasidek kuchli va o'ktam bo'lsa-yu, ishdan ko'ra vaysashni xush ko'radigan ammasining tanbaltabiat Nortoji xomsemizi va yana ukalarining ham dodini bergisi keladi.

O'z ammasining o'g'li aytmoqdan zig'ircha andisha qilmagan: "Ih-hi, otang o'lib, endi kunlaring menga qoldimi!" kabi xitoblarini kimga va nima deb aytishni ham bilmagan bolakay shularni xayolidan o'tkazarkan, ammasi uzatgan shirinlikka qiyo boqmay chiqib ketib, bor alamin qopdan olgan bolakay oqshom onasining sassiz ezilishini o'ylab, qattiq bezovtalanadi va dadasi bilan oldin 2 marta borganini eslab, o'zi tengi bolalarga sira mumkin bo'lmagan bu ishga dadil qo'l urib, qopni tegirmonga o'zi olib borib kelishga qaror qiladi. Endi oldidagi yagona to'siq shu dardisar qopni eshakni ustiga tashlash edi va bolakay buni ham uddabironlik bilan uddalaydi. Agar tegirmonchi amaki uni koyinar bo'lsa, uyda erkaklardan eng kattasi o'ziligini aytishini o'ylab yo'lga tushadi.

Bolakay shularni xayolidan kechirar ekan, o'zini har ishga qodirdek his eta boshladi. Hatto zumda bo'yi o'sib, ovozi yo'g'on tortgandek tuyuladi. U bir qarorga kelishi bilan eshagi tomon, bolalarcha pildirab emas, xuddi otasidek salmoqlanib-salmoqlanib odimladi va bu yurishi o'ziga juda yoqib tushdi. Hattoki o'zidek yigitchaga eshakni emas otni loyiq ko'rib birpas xayolga cho'madi. Endi bolakay xuddi kattalardek salmoqli qadam tashlar, odamlarga ilgargidek shunchaki salom berib qo'ya qolmay, har biri bilan qo'l berib-qo'l berib ko'rishadigan, so'ng hammani hayratga solib, kattalarga xos sokin bir alfozda holahvol so'rashadigan, kattalarga xos tomoq qirib gapiradigan bo'ldi. Hatto qo'shni yigitlar: "Sobir chavandoz tirilib keptimi?" kabi xitoblar qilishadi, uning bu ishga hali yoshligini aytib yo'ldan qaytarmoqchi bo'lganida o'z maqsadiga yetish uchun yolg'on gapirishiga ham to'g'ri keladi. Tegirmonga o'zi emas ammasining o'g'li borishini aytib keta qoladi. Tegirmonga borganda ham tegirmonchining "Ha, yetimning ko'rgan kuni qursin-a! Enang sho'rlikning kuni endi sen yetimchaga qoldimi, a?!" degan gapidagi "yetim" so'zi





bolakayga juda og'ir botadi:"– Men yetimcha emasman! " deydi qoshlarini norozi chimirib.Bolakaydan kimligini so'rashganda esa:"Men erkakman! Oilaning bosh erkagiman!" deydi bolakay charslanib.

Ko'rib turganimizdek endi bu jajjigina bolakayning bolaligidan asar ham qolmagan edi. Endi u o'zini haqiqiy erkak deb hisoblaydi. Hattoki uni qilgan ishidan hayratlangan ona yig'idan o'zini tiyolmay o'g'lini o'pib, erkalab, quchoqlamoqchi bo'lganida ham bolakay bundan orlanib, "boshqa yumushingiz yo'qmi?" kabi xitob bilan ichkariga kirib ketadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hikoyalarning badiiy topilmalari va syujetlarining dahshatli tarzdagi bayoni tufayli ham hech bir o'quvchini befarq qoldirmaydi. Chunki, inson zoti borki, u odam bo'lib shakllanish jarayonida albatta yoshlik degan bir ajib davrni o'tkazadi, ammo, bu yoshlik har kimda har xil, kimdadir hammamiz bilganimiz va ko'rganimiz kabi beg'ubor, betashvish va xursandchilik, o'yin va sho'xliklarga boy bo'lsa, kimlardadir hikoyalarimiz qahramonlaridagidek fojiali – yoshlik yo'qotilgan tarzda o'tar ekan... Bu hol inson qalbini larzaga keltirmay, achinish hissini uyg'otmay qo'ymas ekan.

iste'dodli yozuvchi Isajon Sultonning "Oftob chiqdi olamga" va "Qismat" hikoyalaroda ham o'z bolaligini bolalarcha his eta olmagan bolakaylarning taqdirini ochib berishga harakat qilgan. "Oftob chiqdi olamga" hikoyasining jajjigina qahramoni ham o'zinging beg'ubor davrini silkinish, jerkishlar ostida kechirganiga guvoh bo'lamiz. Ota-ona sog'inchi, yilda bir keladigan onasining yo'lida intizorlik, o'z xolasining uyida doimiy xo'rlanishlar uning yoshligini quritadi.Bu – oq yuzli, ikki betida kulgichi bor, qop-qora ko'zlari o'ychan bolakay, onasining yolg'iz yodgori edi. Ona sho'rlik, birinchi turmushi bo'lmagach, ko'zining oqu qorasini singlisiga qoldirib olis qishloqqa erga tegib ketgandi.Bola sho'rlik onasiga ichikar, kelganida uning mehnatda qavargan dag'al qo'llarini betiga bosib, ko'zlarini yumib-yumib, rohatlanib-rohatlanib suykanib olardi.O'zi to'qigan ertagini hakka-yu zag'cha, chumchug'u musichalar va chumolilarga aytib berardi. Hikoya quyidagicha edi:"Bir bola bor ekan. Otasi yo'q, onasi uzoqda ekan. Xolasining qo'lida qolgan ekan. Xolaning bolalari "yetimcha" deb mazaxlab, u bilan o'ynashmas, pochchasi gaplashmas, xola og'ir ishlarga buyurib, gohida uchi yongan kosov bilan urar ham ekan" Oq yuzli, tiniq nigohli bolakay kim bilan gaplashishni ham bilmas ekan.Yozuvchi farzandning o'z onasiga muhabbati, muhtojligini mahorat bilan ochib bera olgan. Buni farzandning xayolan onasiga aytgan gaplari, izhorlari, u bilan osmonlarcha orzulari misolida ko'rishimiz mumkin:"Jonim onam!" deymanu o'pkam to'ladi.Mana, kimdir non yopdi. Isi tevarakni tutdi.Jonim onam! Sen doimo qoshimda eding. Men ham chopib borib senga suykanishni yaxshi ko'rardim. Qo'lingni taftini haligacha sog'inaman, ey madorim, quvvatim, oromijonim onam!Oftob chiqqani mahalda, tong paytida yangragan bir quvnoq qo'shiq shuncha tuyg'u hosil qiladi deb kim o'ylabdi deysan?Axir, diydoringni sog'indim-ku, jonimning Ka'basi?Elakday emas, tirnoqday mehringga ham zorman-ku, onaginam!Bu quyosh, bu tabiat, bu farog'atu oromlar sening bir jilmayib qarashinggayu ro'moling ostidan chiqib turgan bir-ikki oppoq soch tolangga arzimaydi.Axir, ne saodat bu, onayu bolaning yonma-yon bo'lishi!Sal vaqt o'tsin, men katta bo'laman. Katta bo'lsam, uy quraman. Keyin sen kelasan. Kelasanu sira ketmaysan. Sen yashayotgan qishloq yaxshi emas, turshagu qurutlari taxir. Nima qilarding



o'sha qishloqqa borib, axir, ko'zingni yoshi doim duvillab turadi-ku? Meni bag'ringga bosib gapirasan-yig'laysan, gapirasan-yig'laysan... Sen kelguncha men yaxshi bir uy quraman, keyin ikkovimiz o'sha uyda yashayveramiz. U uyga xolamniyam, uni eriniyam, bolalariniyam kiritmaymiz. Mazza qilib kulib-quvnab o'tirasan. Men qoplarda unlar olib kelaman, sen tandir-tandir nonlar yopasan. Qara, bugun rosa chiroyli oftob chiqdi, tushimda bir qo'shiq eshitdim, uni hammaga aytib ham berdim. Bitta sen eshitmading...

Oftob chiqdi-yu... sen yo'qsan-da, onajon..."

Hikoya xuddi shu tarzda yakun topadi. Afsuski, bu beg'ubor bolajon qorni ovqatga, non tumani kabi eng achinarlisi, ona mehriga ham zo'r... Agar onasi bo'lganda u bunchalik xo'rlanmasdi, ham nonga, ham mehrga to'yardi go'yo... Ona kabi buyuk zot, mehribon va samimiy sotmoq yo'q bu dunyoda, vaholanki, u bo'lmasa bolaga hayot yo'q, nafaqat hayot, orom, halovat, tamil - umuman, hech narsa yo'q... Hikoyamiz qahramoni ham bolaligidan judo bo'lgan, kattalardek o'ychan, tashvishli nigohi bor uning, qalbi ezilgan, kamida xolaning uyda ham sig'indi. Bolalar bola bo'lib yashasin, ota-ona diydoriga, mehri va g'amxo'rlikiga to'yib ulaysiz ekan...

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Normurod Norqobilov. Erkak.
2. Tohir Malik. Yulduzga aylangan bolalik. Hikoya
3. Isajon Sulton. Oftob chiqdi olamga. Qismat. Hikoyalar.
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)